

Oybek SAYDATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti
 "Jahon tarixi" kafedrasida tayanch doktoranti.
 E-mail: ozodbek.radjabov.1994@mail.ru

TDSHU professori, tar.f.d. Shadmanova S. B. taqrizi asosida

ENGLISH MISSIONS IN CENTRAL ASIA

Annotation

There are problems in world history that have not lost their relevance and importance over the years. One of such problems is the Anglo-Russian rivalry in Asia, which began in the middle of the XIX century. This issue is reflected in the monographs of all major world historians, politicians and experts, as well as in many textbooks, magazines and newspaper articles on international relations and diplomacy.

The process of struggle that began between the two imperialist states, Britain and Russia, has gathered many states around it over the years. This area of struggle has covered a very large area of the Eurasian region and has caused very complex political, economic and social problems.

Key words: The Great Game, English Historiography, Indian Empire, Royal Colonial Institute, East India, Victorian Age, Royal Geographical Society.

АНГЛИЙСКИЕ МИССИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В мировой истории есть проблемы, которые не утратили своей актуальности и значимости за прошедшие годы. Одной из таких проблем является англо-русское соперничество в Азии с середины XIX века. Эта проблема отражена в монографиях всех крупнейших мировых историков, политиков и экспертов, а также во многих учебниках, журналах и газетных статьях по международным отношениям и дипломатии.

Процесс борьбы, который начался между двумя империалистическими государствами, Великобританией и Россией, собрал много государств вокруг этого за эти годы. Эта область борьбы охватила очень большую территорию Евразийского региона и вызвала очень сложные политические, экономические и социальные проблемы.

Ключевые слова: Большая игра, английская историография, Индийская империя, Королевский колониальный институт, Ост-Индия, викторианский век, Королевское географическое общество.

MARKAZIY OSIYODAGI INGLIZ MISSIYALARI

Annotatsiya

Jahon tarixida shunday muammolar borki, yillar davomida o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydi. Shunday muammolardan biri sifatida XIX asr o'rtalaridan Osiyoda boshlangan ingliz-rus raqobatchiligini ya'ni "Katta o'yin" siyosatini aytib o'tishimiz lozim. Ushbu masala barcha yirik dunyo tarixchilari, siyosatchilari va ekspertlarining monografiyalari, xalqaro aloqalar va diplomatiyaga bag'ishlangan ko'pgina darsliklar, jurnallar va gazetalarning maqolalarida o'z aksini topgan. Dastlab ikkita imperialistik davlatlar Angliya va Rossiya o'rtasida boshlangan kurash jarayoni yillar davomida o'z atrofida juda ko'plab davlatlarni to'pladi. Ushbu kurash maydoni Yevrosiyo mintaqasining juda katta hududlarini qamrab olib, juda murakkab bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

Kalit so'zlar: "Katta o'yin", ingliz tarixshunosligi, Hind imperiyasi, Qirollik mustamlaka instituti, Ost-Indiya, Viktoriya asri, Qirollik Geografiya jamiyati.

Kirish. Bugungi kunda respublikada ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix fanlari dolzarb mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlarni tashkil etish va ta'minlashda samarali ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizning rivojlangan xorijiy davlatlar bilan integratsiya va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda davlatlararo munosabatlar tarixini chuqurroq o'rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqot 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018 yil 5 apreldagi PF-5400-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari[1] va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. XIX asrning ikkinchi yarmi Buyuk Britaniya tashqi siyosatida butun dunyo, xususan Markaziy Osiyodagi raqobat uchun keskin davr bo'lib, Buyuk Britaniya va Rossiyaning ushbu mintaqadagi qarama-qarshiliklari rivojlanishida ham muhim burilish davri bo'ldi. 1854-1856 yillardagi Qrim urushi hamda 1857-1859 yillardagi Hindistondagi Sipohiyalar qo'zg'oloni mintaqadagi xalqaro munosabatlarning xolatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va ingliz mualliflarini Hindistonning Buyuk Britaniya imperiyasi tizimida tutgan o'rni, ingliz-rus raqobati, O'rta Osiyodagi Buyuk Britaniya imperiyasining maqsad va vazifalarini o'rganish jarayoniga jiddiy kirishishga undadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ikki buyuk davlat Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida "Katta o'yin" siyosiy jarayonining shakllanish davri bo'lib, bu o'sha davr ingliz mualliflarining siyosiy va tarixiy asarlari yaratilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

1857 yilda Hindistonda Buyuk Britaniya imperiyasiga qarshi Buyuk Sipohiyalar qo'zg'oloni boshlandi. Aytish mumkinki, bu qo'zg'olon Hindistondagi inglizlar hukmronligi davomiyligiga qattiq tahdid soldi. Natijada ingliz hukumati Hindistonda bir qator islohotlar o'tkazishga majbur bo'ldi. Jumladan, Ost-Indiya kompaniyasi tugatilib, Kalkuttadagi general-gubernator lavozimi bekor qilindi. Angliya qirolichasi Viktoriya Hindiston qirolichasi deb e'lon qilinib, amaldagi barcha hokimiyat vitse-qirol qo'lida to'plandi. Hindistondagi bu jarayonlar Britaniya hukmron doiralarida Sharqdagi mustamlakachilik siyosati masalalariga e'tiborni kuchaytirishga sabab bo'ldi. Inglizlar bu davrga kelib, Hindistonni Britaniya imperiyasining asosiy elementi sifatida qabul qilishgan edi. Chunonchi, "Hind imperiyasi (Hindistondagi inglizlarning mulki) Rim imperiyasi davridagidek kengaya bormoqda va hozirgi kunda uni bema'lol Yevropa davlatlari qatoriga qo'yish mumkin[2]" –deb ta'kidlana boshlandi.

Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati butun Yevropadagi tarix fani rivojiga, xususan, Britaniya tarixshunosligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tarix fanida bu davrga kelib liberallik yoki Viktoriya tarixi an'anasi yetakchilik qilgan. Bu tendensiyaga ko'ra, eski va yangi tipdagi jamiyat va davlat o'rtasidagi tafovut va kurash jarayonida sivilizatsiya, demokratiya va individual erkinlikning izchil kengayishi yangi taraqqiyot sari qadam qo'yish sifatida tan olina boshlandi.

Aynan shu konsepsiya doirasida "Oq tanli kishining majburiyati" nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u Yevropa xalqlarining zamonaviy sivilizatsiya va madaniyat yutuqlarini Osiyo xalqlari orasida targ'ib qilishi Yevropa xalqlarining ma'naviy-ma'rifiy vazifasi ekanligi g'oyasini ilgari sura boshladi. Ushbu tushuncha u yoki bu darajada o'sha davr tarixshunosligida o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari, XIX asrning ikkinchi yarmida tashqi va mustamlakachilik siyosati muammolari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi davom etdi. Bu davrga kelib, Oksford va Kembrij universitetlarining olimlari Markaziy Osiyoda ingliz siyosati masalalarini tadqiq qilishni boshladilar.

XIX asrning birinchi yarmida ushbu universitetlarning yangi tarix kafedralarida Sharq mamlakatlari tarixi bilan shug'ullanuvchi kadrlar yetishmasligi kuzatilgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, mazkur tashkilotlarda Sharq mamlakatlari tarixini o'rganish hamda sharqshunoslarning asarlarini chop etish yo'lga qo'yila boshlandi. Sharqdagi ingliz mustamlakachilik siyosatining muhimligi nuqtai nazaridan Oksford universitetida mustamlakachilik tarixi kafedrasida tashkil qilingan bo'lsa, London universiteti qoshida Sharq mamlakatlarini tadqiq qilish markazi tashkil qilindi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotimiz davomida biz o'z oldimizga qanday innovatsiyalarni qo'llashni maqsad qilib qo'ydik. Birinchidan, ishning davriy chegarasidan kelib chiqqan holatda "Katta o'yin" siyosati haqidagi adabiyotlarni shartli ravishda turkumlash, ya'ni, adabiyotlarni til va hudud nuqtai nazaridan guruhlariga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Birinchi guruhga bevosita "Katta o'yin" siyosatining birinchi "qutbi" hisoblangan britaniyalik mualliflarga tegishli asarlarni kiritamiz. Bunda imperialistik hukumat hujjatlari, ingliz harbiylari, siyosatchilar, jurnalistlar hamda tarixchilarning asarlari, shuningdek shu davrga oid bo'lgan davriy matbuot nashrlari o'rin egallaydi: G.Roulinson, Ch.Mak-Gregor, E.G. Lasi, D.Ulkvart, R.Vilson, G.Pottinjer, J.Kinneyr, A.Konnoli, A.Byorns, J.Ebbot[4] kabilarning asarlarini ko'rsatish lozim.

"Katta o'yin" siyosati tarixshunosligidagi ikkinchi katta turkum sifatida rus tilidagi manbalarni tasniflashimiz mumkin. Jumladan, M.A.Terentev, A.I Maksheev, M.I.Venyukov, F.F.Martenev, A.Ye. Snasarev, A.N.Kuropatkin, V.A.Bartold, E.L. Shgeynberg, I.Y.Krakhkovskiy, N.A.Xalfin, S.Z. Martirosov, F.X.Yuldashbaeva, G.A.Hidayatov, M.T.Kojekina va I.Ye.Fyodorova, O.I.Jigalina, S.N.Brejneva, A.V.Postnikov[5] va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning yetakchi ilmiy konsepsiyasi muammoga sivilizatsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan muammoni to'g'ri hal etishda ilmiylik, bilishning xolis, tarixiy, qiyosiy va tanqidiy o'rganish, tizimlilik tamoyillari, kulturogenез prinsiplariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Qirollik Geografiya hamda Osiyo jamiyatlari kabi ilmiy tadqiqot markazlarida mustamlakachilik masalalari chuqur o'rganila boshlandi. XIX asrning 60 yillariga kelib, Hindistonda ham yangi sharq ilmiy jamiyatlari va markazlari tashkil qilina boshlandi. 1868 yilda Buyuk Britaniyada Uels shaxzodasi tashabbusi bilan Qirollik mustamlaka institutiga asos solindi. Institut mustamlakachilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi markazga aylanib, uning fondida katta kutubxona to'plandi, institut xodimlari imperiyaning turli qismlarida bo'lib, jamoatchilikda mustamlakachilikka qiziqish uyg'otadigan ma'ruzalar uyushtirar, mustamlaka va razvedka tipidagi ekspeditsiyalarni moliyalashtirib turar edi. 1886 yilda Qirollik mustamlaka instituti Imperiya instituti deb qayta nomlandi. XIX asrning 60 yillarida ingliz Hindistonida Sharqiy Hindiston Assotsiatsiyasi tashkil qilindi[6]. Ushbu tashkilot faoliyatida asosan Afg'oniston va Erondagi ingliz-rus raqobati tahlil qilindi.

XIX asrning 60-80 yillarida Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati asosan Qirollik Geografiya jamiyati tomonidan jiddiy tadqiq qilindi. Ushbu tashkilotning rahbari sharqshunos olim G.Roulinson bilan bir qatorda "Katta o'yin" siyosatining dastlabki tadqiqotchilari R.Murchison, Dj.Vud. D.Buldjer, Dj. Malleson, S.D.Littleded, F.Ye.Yangxasbendlar ilmiy izlanishlar olib borishdi[7].

Mazkur shahslar Ost-Indiya kompaniyasida uzoq vaqt xizmat qilgan harbiy va amaldorlar safini tark etgan olimlar bo'lib, uzoq yillar davomida Sharq mamlakatlarining tarixi, geografiyasi, tili, urf-odatlarini o'rgangan edi. O'z navbatida Hindistondagi Britaniya hukumati ushbu tadqiqotlarni faol rag'batlantirib, Markaziy Osiyoga yo'nalgan ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalarining tashkilotchisi sifatida rol o'ynay boshladi.

XIX asrning 50-60 yillarida Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobatiga bag'ishlangan ingliz tarixshunosligi dastlab ikki maktab tarafdorlari ("Mohir harakatsizlik" va "tajovuzkor siyosat") o'rtasidagi qarama-qarshilik fonida paydo bo'ldi va rivoj topdi. Mazkur konsepsiyalarning yaratilishida taniqli harbiy va siyosiy arboblal, diplomatlar, mustamlaka ma'muriyati xodimlari, sayohatchilar, tarixchi va publitsistlar ishtirok qilishgan. Markaziy Osiyodagi "Katta o'yin" siyosati masalasi va uning ustuvorliklarini muhokama qilish nafaqat akademik munozara, balki siyosiy kurashga aylanib ketdi[8].

"Mohir harakatsizlik" maktabi tarafdorlari Rossiya Hindistonni egallab olishga intilmayotganligini ta'kidlashardi. Chunki, buning uchun Rossiya imperiyasida na real xoxish, na resurs mavjud edi. Shu jihatdan olib qaraganda Hindistondagi Britaniya chegaralarini ekspansiya yo'li bilan kengaytirish shart emasligini uqtirishardi. Mazkur g'oya tarafdorlari Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya nufuzini savdo va diplomatiya orqali kuchaytirish zarurligini keng jamoatchilikka e'lon qilishdi. "Mohir harakatsizlik" maktabining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan, ushbu ta'limot asoschisi, Hindiston vitse-qirolli Dj. Lourens, o'sha paytdagi Buyuk Britaniya bosh vaziri V. Gladston, taniqli tarixchi va publitsistlar V.M. Tornbern, F. Trench, Ya.A. Mak-Gaxan, G.D. Kempbell (gersog Argayl), G. Xannalar edi[9].

Ular Markaziy Osiyodagi ingliz tashqi siyosatining ilmiy asoslarini yaratib, "Mohir harakatsizlik" yondashuvining asosiy qoidalarini ishlab chiqqan edi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa Yu.Skayler, P. F. Uolker, A. G. Forbs, E. Bell, F. Fisher, M. Morris, A. Abbot kabi tadqiqotchilar "Mohir harakatsizlik" maktabi g'oyalarini hukumat doiralarida va jamoatchilik o'rtasida tarqalishi va mustahkamlanishiga o'z hissarini qo'shdilar[10].

Xulosa va takliflar. Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlari uchun imperialistik kuchlar o'rtasida boshlangan raqobat maydonida turli xil g'oya va qarashlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin. Ikkita konfrontatsion mafkura lagerlarida dastlabki davrda faqat bir-biriga qarama-qarshi kayfiyatdagi asarlar yaratilgan bo'lsa, keyinchalik vaziyat tubdan o'zgarar boshladi. Bu g'arab mamlakatlaridagi fanning mafkura ta'sirlaridan mustaqil bo'la olganligi bilan bog'liq jarayon edi. Ingliz va xorij tarixshunosligida bu jarayonlarning natijalarini kuzatganimiz holatida, ularga raqobatchi bo'lgan rus tarixshunosligi sobiq Sovet davlati davrida ham mafkura qoliplaridan chiqa olmaganligini ta'kidlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилиги маълумотлар базаси.
2. Сили Дж., Крэмб Дж. Британская империя. М., 2004. - С. 201-202
3. Есмагамбетов К.Л. Историко-этнографическое изучение дореволюционного Казахстана в Англия и США. Автореферат дисс. канд. ист. наук. М., 1990. С. 13
4. The Central Asian research Center " // Royal Central Asian journal, vol LVI, February, 1969. part L p.105.
5. Эргашхужаева Г. 20 йиллар Ўрта Осиё хотин-қизлар эмансипацияси масалалари инглиз тарихшунослиги талқинида: Тарих фанлари номзоди... дисс... - Т., 1996. - Б. 38.
6. Жигалина О.Н. Великобритания на Среднем Востоке в XIX-начале XX века: Анализ внешнеполитических концепций. М.: 1990. - С. 180.
7. Thorburn W.M. Russia. Central Asia and British India. L, 1865; Trench, Capt. F. The Russo-Indian Question, Historically, Strategically and Politically Considered. L., 1869; Mac Gahan J. A. Compaigning on the Oxus and the Fall of Khiva. L., 1874; Argyll. G. The Eastern Question. Vol. 1-2. L, 1879; Hanna H. B. The Indian Problems. Vol. 1-3, L., 1895.
8. Schuyler E. Turkistan. Notes on a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol. 1-2. L., 1876; Walker P.F. Afghanistan: A Short Account of Afghanistan, Its History and Our Dealings with It. L., 1881; Forbes A.G. The Empire and Cities of Asia. L., 1873; Bell E. The Oxus and the Indus. L, 1869; Fisher F.H. Afghanistan and the Central Asian Question, L., 1878; Abbott A. The Afghan War, 1838-1842. L. 1879; Morris M. The First Afghan War. L., 1878.
9. Malleson G.B. The Foundations of the Indian Empire. Delhi, 1882; Hamley E.H. On the Russia's Advance towards India. L, 1885; Hamley E.H. The Strategical Condition of our Indian North-West Frontier. L., 1879; Boulger D.C. India in the Nineteenth Century. L., 1901.
10. Bellevv H.W. Afghanistan and the Afghans: Being a Brief Review of the History of the Country and Account of its People with a Special Reference to the Present Crises and War with the Amir Sher AH Khan. L., 1879.